

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDUVALIYEV ZAFAR MAXMUDOVICH**

**INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economics sciences**

**Abduvaliyev Zafar Maxmudovich**

Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirish .....3

**Абдувалиев Зафар Махмудович**

Формирование и совершенствование интегрированной отчетности .....27

**Abduvaliev Zafar Makhmudovich**

Formation and improvement of integrated reporting.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDUVALIYEV ZAFAR MAXMUDOVICH**

**INTEGRATSIYALASHGAN HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan  
B2023.2.PhD/Iqt3021raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi  
(www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Maxsudov Begmatjon Yuldashaliyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dosent

**Rasmiy opponentlar:** **Rizayev Nurbek Qadirovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yuldashev Botirali Toshbayevich**  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi  
03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida  
bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100066, Toshkent shahar, I.Karimov ko‘chasi, 49-uy Tel.: (998971) 239-28-72; faks:  
(99871) 239-43-51, e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish  
mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:100066, Toshkent shahar, I.Karimov ko‘chasi,  
49. Uy, Tel.: (998971) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida global raqobat kuchayib borishi bilan yetakchi tarmoqlar qatorida qurilish materiallari sanoatining ahamiyati oshib bormoqda. Bugungi ekologik murakkab sharoitda qurilish jarayonlariga nisbatan talabning kuchayishi mazkur sohani innovatsion jihatdan rivojlantirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. MarketsandMarketsni ta'kidlashicha, "jahon qurilish bozorining 2024-yildagi yillik o'sish sur'ati prognozi 6,0% ni tashkil qiladi va 13 572,4 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda. Bu sohaning gigantlari Bechtel Group (AQSh), Balfour Beatty (Buyuk Britaniya), Grupo ACS (Ispaniya), China State Construction Engineering Corporation limited (Xitoy), L&T Construction (Hindiston), PCL Construction Enterprises (Kanada) va Skanska Construction (Shvesiya) kompaniyalari hisoblanadi".<sup>1</sup> Bu esa qurilish materiallari sanoatini rivojlanish jarayonlarini bevosita aks ettiruvchi integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahondagi global integratsiya sharoitida turli xalqaro tashkilotlar (IIRC, GRI, KRMG, RWS) tomonidan yirik va yetakchi kompaniyalarning integratsiyalashgan hisobotini shakllantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Kompaniyalar hisobotlarida barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olish, nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, integratsiyalashgan hisobotni tuzish algoritmini ishlab chiqish, integratsiyalashgan hisobotni ishlab chiqishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, qurilish materiallari sanoati korxonalarida integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston qurilish materiallari sanoatida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mazkur tarmoqlarda istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda innovatsion mahsulotlarni yaratish, uning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish hamda sohada integratsiyalashgan hisobot tuzishni takomillashtirishni talab etadi. Globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida barqaror rivojlanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi manfaatlari turlicha bo'lgan hisobotdan foydalanuvchilar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Hisobot tizimini rivojlantirishning ma'lum bir bosqichida nomoliyaviy hisobotni shakllantirish zarurati paydo bo'ldi va natijada turli xil nomoliyaviy hisobot standartlari (eng ko'p ishlatiladigani GRI) asosida barqaror rivojlanish hisoboti shakllantirila boshlandi. Shunga ko'ra, nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, integratsiyalashgan hisobotning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, integratsiyalashgan hisobotni tuzish reglamenti loyihasining asosiy elementlarini ishlab chiqish, integratsiyalashgan hisobotni joriy etishning amalga oshirish

---

<sup>1</sup> <https://www.marketsandmarkets.com>

bosqichlarini taklif qilish, integratsiyalashgan fikrlashni qo'llashni zarurligini ilmiy asoslashga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Integratsiyalashgan hisobot va uning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha xorijlik olimlar T.Oshika, S.Adams, R.Simnet, N.N.Balashova, V.A.Melixov, M.A.Vaxrushina, M.V.Krasnova, M.V.Duz, O.V.Yefimova, S.V.Levicheva, N.V.Pislegina, N.A.Loxanova, N.V.Malinovskaya, Y.I.Sigidov, D.A.Nastenکو, O.V.Soloveva, O.A.Chernikova, A.N.Chernikov, N.N.Shamonin va boshqalar<sup>2</sup> tadqiqot olib borgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham buxgalteriya hisobining

---

<sup>2</sup> Adams S. Integrated Reporting: An Opportunity for Australians Not-for-Profit Sector / Sarah Adams, Roger Simnett // Australian Accounting Review. - 2011. - Volume 21.- Issue 3. - P. 292 • 301. Oshika T. Created Value as Sustainability KPIs for Integrated Reporting / Tomoki Oshika, Chika Saka. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: papers.ssm.com/sol3/papers.cfm?abstract id = 2547339. Eccles R.G. Corporate and Integrated Reporting: A Functional Perspective / Robert G. Eccles, Serafeim George // Harvard Business School Working Paper. - 2014. - No. 14-094. - P. 1-21. Балашова Н.Н., Мелихов В.А. Базовые аспекты и параметры концепции когерентно-интегрированной отчётности агропромышленных холдингов / Н.Н. Балашова, В.А. Мелихов // Известия Оренбургского государственного аграрного университета. - 2014. - № 4 (48). - ч. 2. - С. 235-239. Дузь М.В. Аудит интегрированной отчетности / М.В. Дузь. Экономика и управление: проблемы и решения. - 2014. - № 3 (27). - С. 85-88. Ефимова О.В. Парадигма устойчивого развития: проблемы информационно-аналитического обеспечения / О.В. Ефимова // Инновационное развитие экономики. - 2013. - № 1(13). - С. 22-31. Левичева С.В., Пислегина, Н.В. Актуальные проблемы подготовки корпоративной отчетности [Электронный ресурс] / С.В. Левичева, Н.В. Пислегина // Гуманитарные и социальные науки. - 2014. - № 2. - С. 747- 750. Лоханова Н.А. Состав показателей интегрированной корпоративной отчетности - возможный подход к структуризации [Электронный ресурс] / Н.А. Лоханова // Электронный научный журнал «Современные проблемы науки и образования». - 2012. - № 6. - Режим доступа: <http://www.science-education.ru/-ru/article/view?id=7801>. Малиновская Н. В. Интегрированная отчетность - инновационная модель корпоративной отчетности. Международный бухгалтерский учет. 2013. № 38. С. 12-18. Сигидов Ю.И., Настенко Д.А. Актуальные проблемы формирования консолидированной финансовой отчетности / Ю.И. Сигидов, Д.А. Настенко // Международный бухгалтерский учет. - 2013. - № 9 (255). - С. 2-13. Соловьева О.В. Тенденции развития корпоративной отчетности: интегрированная отчетность / О.В. Соловьева // Международный бухгалтерский учет. - 2013. - № 35 (281). - С. 2-15. Черников А.Н., Черникова О.А. Интегрированная отчетность - ценности взаимодействия в XXI веке / А.Н. Черников, О.А. Черникова // Поволжский торгово-экономический журнал. - 2013. - № 5 (33). - С. 77-82. Шамонин Н.Н. Интегрированная отчетность и ее аудит - современное состояние и направления развития / Н.Н. Шамонин // Международный бухгалтерский учет. - 2014. - № 41 (335). - С. 41-49.

nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A.K.Ibragimov, B.A.Xasanov, S.U.Mexmonov, N.Q.Rizayev, K.B.Axmedjanov, R.O.Xolbekov, N.B.Abdusalomova, N.Sh.Xajimurodov buxgalteriya hisobining muayyan sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan<sup>3</sup>. Mazkur tadqiqot ishlarida ilgari surilgan nazariya va ilmiy takliflar mamlakatimizda buxgalteriya hisobini takomillashtirish uchun xizmat qilib kelmoqda hamda ushbu tadqiqot ishining ilmiy-uslubiy asosini tashkil etadi.

Shuni ta’kidlash joizki, mazkur tadqiqotlarda integratsiyalashgan hisobot tuzish hamda uni tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish masalalari o‘rganilmagan. Ushbu holat tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Ushbu dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6 “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalarida taraqqiyotini konseptual yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;  
integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishning uslubiy-nazariy asoslari va mazkur sohadagi xorij tajribasini o‘rganish;  
integratsiyalashgan hisobotni tuzish algoritmini ishlab chiqish;  
integratsiyalashgan hisobotning shakllantirish uslubiyotini yaratish;  
integratsiyalashgan hisobotni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasiga qarashli korxonalar hamda ularning buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, statistik usullar, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

<sup>3</sup> Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditori va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish: Iqt.fan.dokt.diss.avtoref. - T.: O‘z.R.BMA. 2002; “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi”. Darslik/ S.U. Mexmonov. D.Y.Ubaydullayev; Rizayev N.K. Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. Iqt.fan.dokt. (DSc) diss.avtoref. - T.: TMI. 2019; Zamonaviy boshqaruv hisobi. Darslik/ B.A.Xasanov, K.T.Nurmanov, R.B.Xasanova. –T.: “Lesson press” MCHJ nashriyoti, 2021 y.; Xolbekov R.O. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini tashkil qilishning tamoyillari va uslubiyoti. Iqt.fanl.dokt.diss.avtoref. - T.: O‘z.R.BMA. 2006; Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqt.fan.dokt. (DSc) diss.avtoref. - T.: TMI. 2019; N.Sh.Xajimuratov. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlash yo‘nalishlari. –T.: Iqtisod va moliya, 2020 y. –№3 (135).

uslubiy yondashuvga ko‘ra “korporativ ijtimoiy mas’uliyat” tushunchasining iqtisodiy mazmuni kompaniyaning jamiyatga ko‘rsatadigan ijobiy ta’sirlarini kuchaytirish, nufuzini mustahkamlash, salbiy ta’sir va nomoliyaviy riskni kamaytirish, pirovardida aksiyadorlar uchun foydani ko‘paytirish maqsadida korporativ ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini ichki va tashqi stejkxolderlarning manfaatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyat (biznes-jarayonlari)ga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra “nomoliyaviy hisobot” tushunchasining iqtisodiy mazmuni asosiy manfaatdor tomonlar uchun kompaniya faoliyatining biznesni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq asosiy jihatlari va natijalari haqidagi ishonchli hamda qulay tarzda taqdim etiladigan va ixtiyoriy ravishda e’lon qilinadigan ma’lumotlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

integratsiyalashgan hisobotning mazmunan yaqin elementlarini birlashtirish hamda “Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik” elementini alohida bo‘lim sifatida kiritish orqali axborotlar hajmini qisqartirish, mantiqiy izchillik va bog‘liqlikni ta’minlash hamda kompaniya faoliyatining strategik yo‘nalishini belgilash taklifi asoslangan;

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda integratsiyalashgan hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko‘rish, shakllantirish hamda harakatlarni rasmiylashtirishni uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali “Integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash reglamenti loyihasi”ni ishlab chiqish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nomoliyaviy hisobotga oid mualliflik qarashi shakllantirilib, nomoliyaviy hisobotni rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqilgan;

integratsiyalashgan hisobotni tuzish reglamenti loyihasi va loyihaning asosiy elementlari ishlab chiqilgan;

integratsiyalashgan hisobotni joriy etishning amalga oshirish bosqichlari taklif qilinib, integratsiyalashgan fikrlashni qo‘llashni zarurligi ilmiy asoslangan;

korporativ ijtimoiy mas’uliyat, stejkxolderlar, stejkvotcherslar va stejkkiperslar tushunchalarining iqtisodiy mazmuni tadqiq etilgan;

buxgalterning professional fikri tadqiq etilib, unga oid mualliflik qarashlari shakllantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy-uslubiy yondashuv va usullarga, rasmiy manbalardan olingan ma’lumotlarga, xususan, Statistika agentligining rasmiy statistik ma’lumotlariga, xulosa, taklif va tavsiyalarni amaliyotda joriy etilganligining tasdiqlovchi ma’lumotnomalarga, shuningdek, “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasiga qarashli korxonalarining amaliy ma’lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosa va ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi korxonalarida

buxgalteriya hisobi va hisobotning nazariy-uslubiy masalalarini takomillashtirish, uning fundamental va amaliy jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi korxonalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “korporativ ijtimoiy mas‘uliyat” tushunchasining iqtisodiy mazmunini kompaniyaning jamiyatga ko‘rsatadigan ijobiy ta‘sirini kuchaytirish, nufuzini mustahkamlash, salbiy ta‘sir va nomoliyaviy riskni kamaytirish, pirovardida aksiyadorlar uchun foydani ko‘paytirish maqsadida korporativ ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillarini ichki va tashqi steyxolderlarning manfaatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyat (biznes-jarayonlari)ga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Loyiha boshqaruvi” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda korporativ ijtimoiy mas‘uliyat tamoyillarini ichki va tashqi steyxolderlarning manfaatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyat (biznes-jarayonlari)ga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “korporativ ijtimoiy mas‘uliyat” tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo‘yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

uslubiy yondashuvga ko‘ra “nomoliyaviy hisobot” tushunchasining iqtisodiy mazmunini asosiy manfaatdor tomonlar uchun kompaniya faoliyatining biznesni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq asosiy jihatlari va natijalari haqidagi ishonchli hamda qulay tarzda taqdim etiladigan va ixtiyoriy ravishda e‘lon qilinadigan ma‘lumotlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Qurilish iqtisodiyoti” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda kompaniya faoliyatining biznesni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq asosiy jihatlari va natijalari haqidagi ma‘lumotlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “nomoliyaviy hisobot” tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo‘yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

integratsiyalashgan hisobotning mazmunan yaqin elementlarini birlashtirish hamda “Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik” elementini alohida bo‘lim sifatida kiritish orqali axborotlar hajmini qisqartirish, mantiqiy izchillik va bog‘liqlikni ta‘minlash hamda kompaniya faoliyatining strategik yo‘nalishini belgilash taklifi “Nukus imorat Servis” MChJ, “Gazobeton stroy” MChJ, “Temir

beton” MChJ va “Orient keramik” MChJda amaliyotga joriy etilgan (Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 19-sentabrdagi 24-06/9889-son ma‘lumotnomasi hamda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2024-yil 14-maydagi 02/15-1124-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Nukus imorat Servis” MChj, “Gazobeton stroy” MChJ, “Temir beton” MChJ va “Orient keramik” MChJlarida integratsiyalashgan hisobot loyihasining shaffofiligi va ishonchliligi oshirish imkoni yaratilgan;

“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tarkibidagi korxonalarda integratsiyalashgan hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko‘rish, shakllantirish hamda harakatlarni rasmiylashtirishni uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali “Integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash reglamenti loyihasi”ni ishlab chiqish taklifi “Nukus imorat Servis” MChj, “Gazobeton stroy” MChJ, “Temir beton” MChJ va “Orient keramik” MChJda amaliyotga joriy etilgan Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 19-sentabrdagi 24-06/9889-son ma‘lumotnomasi hamda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2024-yil 14-maydagi 02/15-1124-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023-yilda oldingi yilga nisbatan “Gazobeton stroy” MChJda mahsulot sotishdan tushgan tushumni 3 foizga oshirish, “Nukus imorat Servis” MChj va “Temir beton” MChJda tayyor mahsulotning tannarxini 3 foizga kamaytirish hamda “Orient keramik” MChJda mahsulot sotish hajmini 8 foizga oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan hamda ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasi e‘tirof etgan jurnallarda 5 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida 7 ta ma‘ruza hamda tezislarni nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurligi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiyaning bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi va vazifalari, ob‘ekti, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ilmiy ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Korporativ hisobotni shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda nomoliyaviy hisobotni shakllantirishning nazariy masalalari, korporativ hisobotni shakllantirishning nazariy va amaliy

jihatlari hamda integratsiyalashgan hisobotni tuzishning zarurligi yoritilgan.

“Barqaror rivojlanish maqsadlari 17 ta maqsaddan iborat bo‘lib, mamlakatimizda ularning har biri bo‘yicha keng qamrovli ishlar bajarilmoqda va asosiysi, natijalar ham salmoqli bo‘layotir”<sup>4</sup>. Bu borada ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorini qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu qaror ilovasi bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar, chora-tadbirlar rejasi, ularni amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqalar tasdiqlangan. Shuningdek, mazkur qarorda ekspert guruhlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida “O‘zbekiston Respublikasi Ixtiyoriy milliy hisoboti va tegishli tahliliy materiallar tayyorlanishini muvofiqlashtirish belgilangan”<sup>5</sup>. Ushbu vazifani bajarish maqsadida hozirgi kunda mamlakatimiz kompaniyalari (“NTMK” DK, “O‘ztransgaz” AJ va h.k) nomoliyaviy hisobotning bir turi hisoblangan barqaror rivojlanish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirmoqda.

Tadqiqot obyekti hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4198-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasini (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi) tashkil etish to‘g‘risida ta’ sis shartnomasi va uyushma ta’ sischilarining 2019-yil 20-martdagi qarori asosida tashkil etilgan. Uyushmaning ta’ sischilari “Qizilqumsement” AJ, “Bekobodsement” AJ, “Ohangaronshifer” AJ va “Great Wall Ceramic Industries” MChJ shaklidagi qo‘shma korxonalar hisoblanadi. Uyushmaga 158 ta korxonalar va tashkilotlar ixtiyoriy ravishda a’zo bo‘lgan. Uyushma qurilish materiallarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi va unga tegishli xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar (jamiyat) va tashkilotlarni birlashtiradi. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasiga qarashli korxonalarda 2019-2025 yillarda mahalliy xom ashyoni qazib olish ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Nomoliyaviy hisobot tushunchasi ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. Ularni tadqiq etish munozarali jihatlardan ham mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, tadqiqotda iqtisodiy adabiyotlar tahlili va amaliyotni o‘rganish asosida nomoliyaviy hisobotga oid mualliflik qarashi shakllantirildi.

---

<sup>4</sup> M.Eshov. Barqaror rivojlanish maqsadlari – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi. Xalq so‘zi. 2023 yil 16 fevral. №32 (8375). [www.xs.uz](http://www.xs.uz).

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs>.

**“O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2018 — 2025 yillarda mahalliy xom ashyoni qazib olish ko‘rsatkichlari<sup>6</sup>**

Xom ashyo resurslarining nomi	O‘lchov birligi	Qazib olish hajmlari									2025 yilda 2018 yilga nisbatan nisbatan (foizda)
		2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y. reja		
Ohaktosh	ming tonna	11 219,7	16 268,6	19 073,5	20 195,5	21 317,4	21 878,4	22 439,4	24 312,0	216,7	
Tuproqsimon komponentlar	ming tonna	1216,7	1581,7	1703,4	1825,1	2007,6	2068,4	2129,2	2 202,2	181,0	
Kvars qumi	ming tonna	287,9	374,3	431,9	575,8	719,8	863,7	1 007,7	1 262,0	438,3	
Qum-shag‘al materiallari	ming kub. m	7 029,2	8 083,6	9 138,0	9 840,9	10 543,8	11 246,7	11 949,6	12 652,6	180,0	
G‘isht xom ashyosi	ming kub. m	2092,4	2406,3	2510,9	2615,5	2720,1	2887,5	2992,1	3150,0	150,5	
Ko‘chgan tog‘ jinslari (bazalt)	ming tonna	162,7	195,2	211,5	227,8	244,1	260,3	276,6	293,5	180,4	
Gips toshi	ming tonna	1 292,0	1 679,6	1938,0	2067,2	2196,4	2454,8	2713,2	3 077,0	238,2	

Rasmiy moliyaviy hisobotlarning milliy konsepsiyasini yaratish borasidagi xorij tajribasiga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Rossiya tajribasini o‘rganish mazkur davlat bu sohada ilg‘or mamlakatlar yo‘lidan borganligi va Hukumatning qaroriga ko‘ra joriy etilgan nomoliyaviy hisobotlarni majburiy e‘lon qilish talabi asosida ish yuritganligini ko‘rsatdi.

Xorij tajribasi va amaliyoti tadqiqi natijasida mamlakatimizda nomoliyaviy hisobotning rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi va tavsiya qilindi.

Mamlakatimizda nomoliyaviy hisobotga oid me‘yoriy-huquqiy baza uchun tegishli davlat qonunini qabul qilish zarur. Shu boisdan tadqiqotda xorij tajribasi asosida nomoliyaviy hisobot to‘g‘risidagi davlat qonuni loyihasi ishlab chiqish tavsiya etilmoqda.

<sup>6</sup> “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Korporativ hisobotning maqsadi korxonalarining iqtisodiy salohiyati, ularning rivojlanish strategiyasi, turli agentlik guruhlarida manfaatlar to'qnashuvini minimallashtirishga yordam beradigan qiymatning barqaror o'sishi uchun investorlar oldida yetarlicha jozibadorlikni ta'minlaydigan muhim risklar haqidagi ma'lumotlarni shakllantirishdir. Korporativ hisobot samarali biznesning ajralmas qismi hisoblanadi va xorijiy kompaniyalar ushbu hisobotni taqdim etayotganligi tufayli muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatadi.

Korporativ hisobotni shakllantirishning zamonaviy amaliyotini tahlil qilish unda tizimli yondashuv mavjud emasligini ko'rsatdi. Qonunchilikda tavsiyalar keltirilmagan va umuman me'yoriy tartibga solish mavjud emas. Korxonaning korporativ hisobotlarida e'lon qilinishi kerak bo'lgan ichki reglamentlar hamda nomoliyaviy ko'rsatkichlar belgilanmagan.

Iqtisodiy adabiyotlar tahlili ushbu mavzuda tadqiqot o'tkazgan barcha iqtisodchi olimlar korporativ hisobotni shakllantirishga oid harakatlar ketma-ketligini tavsiya qilganligini ko'rsatdi. Bunga mulkchilik shakli, korxonaning faoliyati ko'lami, tashkiliy tuzilmasi, faoliyat turlari va korxonaning hisob - analitik ta'minoti kabi turli omillar ta'sir ko'rsatadi.

Odatda, korporativ hisobot uchta: tavsiflovchi, boshqaruv munozarasi va tahlil, moliyaviy kabi asosiy bloklarni o'z ichiga oladi.

Tavsiflovchi blok hamkorlar, mijozlar va aksiyadorlarga kompaniya rahbariyatining murojaati, korxonaning qisqacha tarixi va asosiy loyihalarning tavsifini o'z ichiga oladi. Boshqaruv munozarasi va tahlil bo'limida moliyaviy-iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlariga muvofiq boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyotini tahlil qilish o'rin olgan. Moliyaviy blokda moliyaviy hisobot, uni sharhlari va auditorlik xulosasi chop etiladi.

Tadqiqotda yuqoridagilardan kelib chiqib, korporativ hisobotni shakllantirish uslubi ishlab chiqildi (1-rasm).

Bizningcha, korporativ hisobot balans (statik, dinamik va boshqa balans turlari); moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot; kompaniyaning qiymati haqidagi hisobot; risk haqidagi hisobotlarni o'z ichiga olishi kerak.


Shuningdek, qo'shimcha ravishda quyidagi ma'lumotlar ham aks ettirilishi kerak:

ozchilikni tashkil etuvchi aksiyadorlar (uning ulushi kompaniyaning boshqaruvida bevosita ishtirok etishiga imkon bermaydi) bilan tuzilgan bitimlar, korporativ bitimlar va manfaatdor tomonlar bilan tuzilgan bitimlar haqidagi ma'lumotlar;

korporativ boshqaruv haqidagi ma'lumotlar;

kompaniyaning ustav hujjatlari (Nizom, ichki qoidalar va h. k.);

ijtimoiy siyosat va atrof-muhitni muhofaza qilish (hisobotlar) haqidagi ma'lumotlar.



**1-rasm. Korporativ hisobotni shakllantirish uslubi<sup>7</sup>**

Korporativ hisobotlar tahlilini ko'rsatishicha, ko'rib chiqilgan hisobotlarning barcha turlari faqat manfaatdor foydalanuvchilarning muayyan guruhlarining ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi va korxonaning rivojlanish barqarorligini yaxlit tasavvur qilish imkonini bermaydi. Ushbu muammoni xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning barcha turdagi hisobotlari genezisini natijasi bo'lgan integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish orqali samarali hal qilish mumkin.

So'nggi vaqtlarda iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish orqali ma'lumotlarni taqdim etishning mavjud amaliyoti ko'pchilikni qoniqtirmayotganligi haqida ko'pgina fikrlar bildirilmoqda.

Ko'pgina mutaxassislar uning sababi sifatida an'anaviy buxgalteriya

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.

(moliyaviy) hisobotining biznesning o'sishi va rivojlanishining qo'shimcha omillarini hisobga olmayotganligi, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarigagina asoslanayotganligi, katta hajmga egaligi, murakkabligi, ko'plab texnik tafsilotlarni mavjudligi va uni izohlash uchun maxsus moliyaviy bilimlar talab qilinishini ko'rsatmoqda. MHXSni yaratuvchilar ham moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlar foydalanuvchilarning barcha axborot ehtiyojlarini qondira olmasligini tan olmoqda.

Ushbu masalani hal etishga qaratilgan eng ommabop va keng qo'llaniladigan yechimlardan biri integratsiyalashgan ma'lumotlarni shakllantirish hisoblanadi.

Integratsiyalashgan hisobot ma'lum bir vaqt ichida qiymatni yaratilishi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish vositasi hisoblanadi. Integratsiyalashgan hisobot - korxonaning strategiyasi va boshqaruvi, moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari hamda istiqbollari qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda qiymatni yaratishga olib kelishi tartibi haqida qisqacha ma'lumotlar taqdim etish vositasidir.

**Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari** deb nomlanuvchi ikkinchi bobda integratsiyalashgan hisobotning mazmuni, tamoyillari, elementlari va uni shakllantirishning zamonaviy amaliyoti hamda xorij tajribasi yoritilgan.

“Integratsiyalashgan hisobot” atamasi ingliz tilidan (“Integrated Reporting”) tarjima qilingan. Bu turli xil elementlarning integratsiyasini anglatadi. Integratsiyalashgan hisobot nazariyasi va amaliyoti shakllanish bosqichidadir. Hozirgi vaqtda integratsiyalashgan hisobotning xalqaro darajada qabul qilingan ta'rifi mavjud emas.

Integratsiyalashgan hisobotning shakllanishi xususiyatlarini tadqiq etgan iqtisodchi olimlar va professional tashkilotlarning ta'riflarini o'rganish quyidagi tendensiyalarni aniqlashga imkon berdi:

integratsiyalashgan hisobot va barqaror rivojlanish hisobotining assotsiatsiyasini keng tarqalganiga qaramasdan, faqat ba'zi bir mualliflarga mazkur tushunchani izohlashda ushbu xususiyatga e'tibor qaratmoqda (G. Kostirko, A. Kuzmenko, N. Abrosimova, N. Malinovskaya, V. Roshektayeva);

ba'zi bir mualliflar esa qiymat yaratish jarayonining keng ma'noda aks ettirilishini integratsiyalashgan hisobotning asosiy (muhim) jihati deb hisoblasalar (V.Maksimova, R.Kuzina), boshqalari integratsiyalashgan hisobotning faqat iqtisodiy jihatlarigagina e'tibor qaratgan (L. Gerasimova, A. Korobkova).

IHHSida integratsiyalashgan hisobotning keng ta'rifi keltirilgan bo'lsada, ba'zi bir kamchiliklarga ega. Xususan, qanday hujjatlarni integratsiyalashtirilgan hisobotga kiritish kerakligi aniq bayon qilinmagan va integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish jarayonining amalga oshirishni uzluksizligi haqida hech qanday ma'lumotlar keltirilmagan. Bizningcha, integratsiyalashgan hisobotni nafaqat o'zaro bog'liq harakatlar majmui sifatida, balki xo'jalik yurituvchi subyektlarni boshqaruv tizimining elementi sifatida ham ko'rib chiqish kerak, ya'ni uning ta'rifiga nisbatan tizimli yondashuvni qo'llash kerak.

Ushbu kamchiliklarni barataraf qilish maqsadida dissertatsiyada tahliliy materiallar asosida “integratsiyalashgan hisobot”ga oid mualliflik ta'rifi shakllantirildi.

Integratsiyalashgan hisobot mazkur hisobotning mazmunini belgilovchi elementlari asosida ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar mantig'ini hisobga olgan holda

tuziladi. Hisobotda har bir elementni aks ettirish ketma-ketligi va to'liqligi korxonalariga qarab farq qiladi, ammo ularning ro'yxati odatda o'zgarishsiz qolishi kerak.

Integratsiyalashgan hisobotning xalqaro kengashiga ko'ra, ushbu hisobotning mazmunini belgilab beruvchi o'zaro bog'liq elementlar mavjud. Ularga kompaniya va uning faoliyati haqidagi umumiy ma'lumotlar, boshqaruv faoliyati, kompaniyani imkoniyatlari, xavflar, strategiyasi, resurslarni taqsimlashga oid rejalari, biznes-modeli, moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari va kelajak istiqboli kiradi. Integratsiyalashgan hisobot elementlarining xalqaro standartga muvofiq tarkibi 2-jadvalda keltirilgan.

Integratsiyalashgan hisobotda moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarni (masalan, kompaniya to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar, uning tashqi muhiti, boshqaruv faoliyati, strategiyasi, resurslarni taqsimlanishi, harakatlari) aks ettiruvchi elementlarga qo'shimcha ravishda mazkur sanab o'tilgan elementlar formatida integrallashgan xoldagi qo'shimcha ma'lumotlar (imkoniyatlari, risklar, biznes-modeli, kelajak istiqbollari kabi) ham keltiriladi.

## 2-jadval

### Integratsiyalashgan hisobotning mazmunini belgilovchi elementlar

<b>Tarkibiy elementlari</b>	<b>Tavsifi</b>
Kompaniya haqidagi umumiy ma'lumotlar	Kompaniyaning missiyasi va strategiyasi aniqlanadi. Kompaniyaning qisqa, o'rta yoki uzoq muddatlarda qiymat yaratish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi muhim omillar belgilanadi.
Boshqaruv faoliyati	Kompaniyaning qiymat yaratish qobiliyati bilan bog'liq boshqaruv tuzilmasi, harakatlari va strategik qarorlar qabul qilishdagi o'ziga xos jarayonlar tavsiflanadi.
Biznes-modeli	Strategik maqsadlarga erishish va qiymat yaratishga qaratilgan moliyaviy xo'jalik faoliyati orqali resurslarni mahsulot hamda natijalarga aylantirish tizimi.
Imkoniyatlari, risklar	Kompaniyaning qiymat yaratish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi imkoniyatlari va risklari aniqlanadi.
Strategiyasi va resurslarni taqsimlanishi	Ushbu bo'limda kompaniya qaysi yo'nalishda rivojlanishni xohlaydi va buni qanday amalga oshirishni rejalashtirgan?, - degan savolga javob berishi kerak.
Moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari	Risklar va imkoniyatlarning miqdoriy ko'rsatkichlari, kompaniyaning kapitalga ta'siri, asosiy manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar holati bayon qilinadi.
Kelajak istiqbollari	Kompaniyaning strategiyasini amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va noaniqliklar; kelajak prognozlar va loyihalari; haqiqiy ko'rsatkichlarni oldindan belgilangan maqsadlar bilan taqqoslash.
Hisobot tayyorlash va taqdim etishning asosiy tamoyillari	Kompaniyaning muhimligini aniqlash jarayonining qisqacha tavsifi. Hisobot chegaralarining tavsifi. Muhim omillarni baholash uchun qo'llaniladigan metodlar haqida qisqacha ma'lumotlar.

Kompaniya tomonidan integratsiyalashgan hisobotni shakllantirishda ma'lumotlarni taqdim etishning barcha yoki ko'pgina muhim tamoyillariga rioya

qilinganda, fundamental konsepsiyalarga asoslanilganda va barcha 8 ta yoki ko'pchilik bo'limlar bo'yicha ma'lumotlar aks ettirilganda hisobotni to'laqonli integratsiyalashgan hisobot deb atash mumkin.

Yetakchi olimlar va amaliyotchilar integratsiyalashgan hisobotni joriy etish tartibini aniqlashda turli bosqichlarni taklif qilgan. Iqtisodiy adabiyotlar tahlili va amaliyotni o'rganish natijasida tadqiqotda hisobotni shakllantirishda quyidagi 6 ta bosqichni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq deb topildi: 1) ish hajmini aniqlash; 2) jamoani shakllantirish; 3) integratsiyalashgan hisobotning mazmunini aniqlash; 4) integratsiyalashgan hisobotning tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish; 5) ma'lumotlarni yig'ish; 6) integratsiyalashgan hisobotning matni va moliyaviy qismini tayyorlash. Har bir bosqich ma'lum bir maqsadlarga erishishga qaratilgan va ularga erishish uchun ma'lumotlar bazasi hamda integratsiyalashgan hisobotning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqiladi.

Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish, undagi ma'lumotlarni qayd etishning samarali jihatlarini aniqlash va mamlakatimiz kompaniyalari amaliyotida qo'llash uchun tavsiya qilish hozirgi kunda o'ta dolzarb masala hisoblanadi.

Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishgan mintaqalar ichida Afrika qit'asi yuqori o'rinni egallaydi. Ushbu holatni Afrika (xususan, Janubiy Afrika Respublikasi) integratsiyalashgan hisobot shakllantirish majburiyati joriy qilingan birinchi mintaqa ekanligi bilan ham izohlash mumkin. Shuningdek, Janubiy Afrika Respublikasi nafaqat shakllantirilayotgan integratsiyalashgan hisobot soni bo'yicha, balki sifati bo'yicha ham yetakchilik qiladi. Hozirga kelib, Yaponiya va Braziliyada ham integratsiyalashgan hisobotni tuzuvchi kompaniyalar miqdori sezilarli darajada oshgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Ginnes rekordlar kitobi ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi eng qadimgi firma Yaponiyaning Kongo-gumi firmasi bo'lib, 578-yilda tashkil etilgan. Shu boisdan ham Yaponiyada integratsiyalashgan hisobotga bo'lgan talab juda yuqoridir.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotda Janubiy Afrika, Yaponiya va Braziliyaning 4 ta kompaniyasi integratsiyalashgan hisobotini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq, - deb topildi. Tadqiqotda xorijiy kompaniyalarning integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish borasidagi tajribasidan mamlakatimiz kompaniyalarida mazkur hisobot turini shakllantirishga o'tish davrida foydalanish kerakligi va bu mazkur jarayonni tezlashishiga xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

Integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash jarayonida buxgalterning professional fikri muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda buxgalterlarning faoliyat sohasi aniq samaradorlik ko'rsatkichlarini tanlashdan boshlab boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarning muhimligini aniqlash, oshkor qilingan ma'lumotlar hajmini taqdim etish formatigacha barchasi o'ta ahamiyatlidir. Buxgalter me'yoriy hujjatlarni chetga surib qo'yib professional fikrlashni boshlaydi, biroq agar u me'yoriy hujjatlardagi talablar uni fikricha noto'g'ri bo'lmasada, biroq yetarli emas deb topsa, u holda savollar paydo bo'lgan ba'zi xo'jalik faoliyati jarayonlarini baholash bo'yicha o'z fikrini bayon etishga haqlidir. Buxgalteriya hisobi bo'yicha professional fikrlash buxgalteriya hisobi va tahlil sohasi mutaxassislarining kasbiy tajribasi, bilimlari, ko'nikmalari, ularning qonun hujjatlari, amaldagi standartlar va

boshqa hujjatlardan malakali foydalanishiga asoslanadi. “Buxgalterning professional fikri” tushunchasi hozirgacha ham qonunchilik darajasida, shuningdek, professional buxgalteriya hamjamiyati tomonidan to‘liq shakllantirilmagan, bu esa uni talqin qilish va buxgalteriya amaliyotida qo‘llashda noaniqliklarga olib kelmoqda. Shu boisdan iqtisodchi olimlarning “Buxgalterning professional fikri” atamasiga bag‘ishlangan ta’riflarini o‘rganib chiqish natijasida mazkur tushunchaga oid mualliflik qarashi shakllantirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Integratsiyalashgan hisobotni takomillashtirish masalalari**” deb nomlanadi. Ushbu bobda integratsiyalashgan hisobotning uslubiyoti va auditorlik tekshiruvini tashkil qilish hamda takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqotda iqtisodiy adabiyotlar tahlili asosida integratsiyalashgan hisobotni tuzish va taqdim etish tizimi - bu kompaniya va uning hisobotidan foydalanuvchilari manfaatlarini hisobga olgan holda, boshlang‘ich ma’lumotlarni yakuniy integratsiyalashgan hisobotga aylantirishga qaratilgan hamda jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan, natijaga yo‘naltirilgan murakkab tashkiliy kompleks ekanligi ilmiy asoslangan. Asosiy jarayonlardan tashqari, unda yordamchi va qo‘llab-quvvatlovchi xarakterdagi bir qator xatti-harakatlar va protseduralar ham amalga oshiriladi. Taklif etilayotgan tizimda alohida ichki nazorat, shuningdek auditorlik tekshiruvini bloklari ajratib ko‘rsatilgan (2-rasm).



**2-rasm. Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish va taqdim etish tizimi<sup>8</sup>**

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi.

Tadqiqotda xo'jalik yurituvchi subektning namunaviy reglamenti asosida integratsiyalashgan hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish va shakllantirish hamda harakatlarni rasmiylashtirishni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasiga qarashli korxonalar uchun integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash reglamenti loyihasi" ishlab chiqildi.

Integratsiyalashgan hisobotni tuzish jarayoni quyidagi asosiy kichik jarayonlarni ajratib ko'rsatish orqali rasmiylashtirilishi mumkin:

aks ettirilayotgan kapital turlarining har biri bo'yicha o'z-o'zini tekshirish va dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish;

integratsiyalashgan hisobotning dastlabki loyihasini tayyorlash uchun boshlang'ich ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish va to'plash;

dastlabki loyihani shakllantirish;

dastlabki loyihani tahlil qilish, uning tarkibi va mazmunini aniqlashtirish, kelishish hamda tasdiqlatish uchun integratsiyalashgan hisobotning proformasini tayyorlash;

proformani rasmiy integratsiyalashgan hisobot sifatida belgilangan tartibda tasdiqlatish va uni ochiq ma'lumot sifatida joylashtirish hamda manfaatdor tomonlarga taqdim etish uchun tayyorgarlik ko'rish;

kompaniya veb-saytida ochiq ma'lumot sifatida joylashtirish va integratsiyalashgan hisobotni mustaqil tasdiqlash.

Integratsiyalashgan hisobotni tayyorlashning bunday algoritmi nafaqat tashkiliy jihatdan to'g'ri tuzilgan, balki qo'shimcha xarajatlar sarflansada samarali hisoblanadi. Chunki algoritimga rioya qilish orqali ushbu jarayonning axborot va tashkiliy jihatlariga maksimal darajada e'tibor berishga imkoniyat yaratiladi.

Integratsiyalashgan hisobotni samarali shakllantirish uchun korxonada ushbu hisobot ko'rsatkichlari bo'yicha g'oyalar ma'lumotlar bazasini yaratish tavsiya etiladi. Bu esa xodimlarning ma'lumotlarni aks ettirishga oid takliflarini unutishdan "himoya qiladi" va o'z vaqtida qayd etish imkonini beradi hamda g'oyalarni birlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatga ega bo'lish, shu tariqa integratsiyalashgan hisobotni mazmunan boyitish konstruktorligini yaratish imkoniyatini yaratadi. Xodimlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkaziladi. Unda har bir ishtirokchi mustaqil ravishda ko'rsatkichlar yoki integratsiyalashgan hisobot ma'lumotlari bo'yicha takliflar ro'yxati ustida ishlaydi, so'ngra taklif qilingan g'oyalar yagona ro'yxatda birlashtirilib, takrorlanish bartaraf qilinadi va "Integratsiyalashgan hisobot ko'rsatkichlari uchun g'oyalar korporativ bazasi" shakllantiriladi. G'oyalarni elektron jadval shaklida guruhlash mumkin. Unda g'oya muallifi, uning pozitsiyasi, integratsiyalashgan hisobot uchun taklif etilayotgan ko'rsatkich, ko'rsatkichning qisqacha tavsifi, aks ettirish taklif qilinayotgan bo'lim, taklif etilayotgan ko'rsatkich yordamida tavsiflangan ma'lumotlarni potensial manfaatdor foydalanuvchilari bayon qilinadi.

Iqtisodiy adabiyotlar tahlili va amaliyotni tadqiq etish orqali tadqiqotda integratsiyalashgan hisobotning bir nechta elementlarini birlashtirish va yangilarini qo'shish orqali tarkibiy tuzilmasi modernizatsiya qilindi. "Tashkiliy ko'rinish", "boshqaruv", "strategiya", "kelajak istiqbollari", "biznes modeli" va "operatsion

natijalar” kabi elementlar birlashtirildi va “Xavflar” elementini o‘zgarishsiz qoldirish hamda "Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik"ni alohida element sifatida kiritish maqsadga muvofiq deb topildi(3-jadval).


**3-jadval**

**Integratsiyalashgan hisobotning tarkibiy tuzilmasi<sup>9</sup>**

IHXSGa muvofiq tarkibiy elementlari	Yangi metodologiyaga muvofiq tarkibiy elementlari
1. Kompaniya va tashqi muhit haqidagi umumiy ma'lumotlar	1. Kompaniya va tarmoq haqidagi umumiy ma'lumotlar
2. Boshqaruv haqidagi ma'lumotlar	
3. Strategiya va resurslar	2. Strategik tahlil
4. Kelajak istiqbollari	
5. Biznes modeli	3. Biznes-modeli va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari
6. Moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari	
7. Xatarlar	4. Xatarlar
	5. Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik

Integratsiyalashgan hisobotning taklif etilayotgan tuzilmasi axborotlar hajmining qisqarishiga, mantiqiy izchillik va bog‘liqlikka olib keladi hamda kompaniya faoliyatining strategik yo‘nalishini belgilash imkoniyatini yaratadi.

